

**O‘ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO  
STANDARTLARGA MUVOFIQLASHTIRISH****Rizayev Nurbek Kadirovich**O‘zbekiston Respublikasi bank moliya  
akademiyasi “Buxgalteriya hisobi  
va audit” kafedrası mudiri**Maxamadaliyev Boburbek Baxodir o‘g‘li**O‘zbekiston Respublikasi bank moliya  
akademiyasi tinglovchisi

Tel: 94 277-88-98

Email: [mbobur313@gmail.com](mailto:mbobur313@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o‘tish masalalari, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PQ-4611-sonli qarori asosida moliyaviy hisobotlarni tizish tartibi, uning amaliyotda qo‘llanilishi va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o‘tishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarining amaliy tahlili keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti, moliyaviy hisobotning milliy standartlari, kichik va o‘rta biznes.

**Abstract:** In this article, the transition to international standards of financial reporting in Uzbekistan, in particular, the President of the Republic of Uzbekistan on February 24, 2020 "On additional measures for the transition to international financial reporting standards" On the basis of decision PD-4611, a practical analysis of the procedure for compiling financial statements, its application in practice, and the problems in the transition to international standards of financial statements and ways to overcome them is presented.

**Key words:** Financial report, International Standards of Financial Reporting, Financial Accounting and Reporting, National Standards of Financial Reporting, small and medium business.

**Аннотация:** В данной статье изложены меры, переход на международные стандарты финансовой отчетности в Узбекистане, в частности Президент Республики Узбекистан от 24 февраля 2020 года «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности» На основании постановления ПП-4611 представлен практический анализ порядка составления бухгалтерской отчетности, его применение на практике, а также проблемы при переходе на международные стандарты финансовой отчетности и пути их преодоления.

**Ключевые слова:** Финансовый отчет, международные стандарты финансовой отчетности, финансовый учет и отчетность, национальные стандарты финансовой отчетности, малый и средний бизнес.

**KIRISH**



Mamlakatimizda bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir sohada bugungi globallashuv jarayonida sifatli va raqobatbardosh tizim yaratish bo'yicha amaliy ishlar davom etmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilish uchun muayyan sharoit yaratish, jumladan, vatanimiz iqtisodiy sub'ektlari faoliyatining shaffofligi va aniqligiga erishish zarur. Bu masalani amalga oshirish moliyaviy hisobotlarning umumqabul qilingan jahon standartlarini – moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash bilan bog'liq. Xususan, so'nggi yillarda respublikamizda buxgalteriya hisobi va hisobotini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiqlashtirish bo'yicha qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda va bugungi kunda ushbu ulkan ishlarning navbatdagi istiqbolli bosqichiga o'tildi desak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"<sup>2</sup> (Mirziyoyev, 2020) qarori qabul qilinishi va unga binoan, 18ta banddan iborat "Yo'l xaritasi" tasdiqlangani yurtimizda ushbu yo'nalishda ham jiddiy ishlarga qo'l urilayotganidan dalolat beradi. Bu – oqilona yo'l. Binobarin, biz xalqaro doiraga, jahon bozoriga intilayotgan ekanmiz, faoliyatimiz ham xalqaro darajaga mos bo'lishi lozim. Mazkur qarorda yurtimizda faoliyat yuritayotgan davlat sektorlarida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha yo'l – yo'riq va ko'rsatmalar berilgan. Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini mamlakatlarda qo'llash orqali yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlarni tayyorlash imkonini beradi, davlat sektori faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi, axborotlarni shaffofligini oshiradi, Budjetga moliyaviy hisob va statistik hisobotlarni yuqori darajada integratsiyalashuvini ta'minlaydi, axborotlarni ishonchliligi va to'liqligini oshishi hisobiga davlat aktivlarini samarali boshqarish imkonini beradi, moliyaviy hisobotlarni boshqa mamlakatlar moliyaviy hisobotlari bilan solishtirish imkoniyati yaratiladi, xalqaro munosabatlarni globallashuvi sharoitida mamlakat majburiyatlari qandayligi va uni o'z resurslari bilan qanday boshqarayotganligi shuningdek moliyaviy holatni tushinish asosida chet el investitsiyalarini hajmini oshishi va donorlik mablag'larini ko'payishi imkonini beradi.

Yuqoridagi qarorning ijrochi vakolatli organi sifatida Moliya vazirligi qarorda belgilab berilgan vazifalarning ijrosini to'liq ta'minlab kelmoqda. Vazirlik tomonidan o'tgan yillar davomida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari Fondi (IFRS) bilan amaliy ishlar amalga oshirildi va 2020-yil 11-noyabrda MHXS xujjatlarini davlat tiliga tarjima qilish va boshqa tillarda foydalanish huquqini oluvchi bitim imzolandi. Bu esa qaror ijrosini ta'minlashda qo'l keladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:**

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini mamlakatda joriy qilish uchun bugungi kunda ko'plab manbalarni topish mumkin. Bugungi kunda dunyo bo'ylab 150 dan ortiq davlatlar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanmoqda va har bir foydalanuvchi mamlakat ushbu standartlarga turli yo'llar orqali o'tgan. Quyida shunday mamlakatlarning MHXSga o'tishdagi ijobiy va samarali yo'llarini tahlil qilamiz.

<sup>2</sup> SH.Mirziyoyev, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son



**Xitoy Xalq Respublikasi** Moliya vazirligi xalqaro standartlarni tartibga solish va tadbirkorlik korxonalarini uchun buxgalteriya hisobi standartlarini belgilash uchun mas'ul organ hisoblanadi. Xitoy Xalq Respublikasining maxsus ma'muriy hududlari sifatida Gonkong va Makao hududlari o'z moliyaviy standartlariga ega, shunga ko'ra ular uchun alohida yurisdiksiya profillari mavjud. 2005-yil noyabr oyida Xitoy Xalq Respublikasi va IFRS o'rtasida qo'shma bayonot imzolandi, 2010-yil aprel oyida Xitoy Moliya vazirligi tomonidan e'lon qilingan Xalqaro moliyaviy standartlarga ega bo'lgan biznes korxonalarini uchun buxgalteriya hisobi standartlari IFRS va Xitoy o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirdi. 2015-yil 18-noyabrda IFRS fondi va Xitoy Moliya vazirligi xalqaro yo'naltirilgan Xitoy kompaniyalari uchun IFRS standartlarini qo'llash yo'llari va qadamlarini o'rganish uchun qo'shma ishchi guruh tuzilganini e'lon qildi. 2015-yilda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari soddalashtirilgan xitoy tiliga tarjima qilingan<sup>3</sup>.

**Rossiya Federatsiyasida** 2011-yil oxirida IFRS standartlaridan foydalanish o'tgan va 2012-yildan boshlab "Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar to'g'risida"gi Federal qonuniga muvofiq majburiy etib belgilangan. Qonunga ko'ra banklar, sug'urta kompaniyalari, nodavlat pensiya jamg'armalari, investitsiya fondlarini boshqaruvchi kompaniyalar, kliring tashkilotlari, federal davlat korxonalarini va aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotlar uchun Xalqaro standartlardan foydalanish shart etib belgilangan. Rossiya Federatsiyasida ham mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishga Moliya vazirligi javobgar hisoblanadi. Rossiyada xalqaro standartga o'tish bir nechta bosqichlarda amalga oshirilgan, birinchi, Moliya vazirligi tomonidan tayinlangan buxgalteriya hisobi va hisoboti standartlari milliy tashkiloti (NOFA) tomonidan Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari texnik baholashdan o'tkazilgan; ikkinchi bosqichda Moliya vazirligi va Adliya vazirligi bilan hamkorlikda IFRS standartlarini tasdiqlash to'g'risida nizom qabul qilingan.

**Janubiy Koreya** birjasida ro'yxatga olingan barcha kompaniyalar xalqaro moliyaviy standartlarni qo'llashlari shart. Bunday korxonalariga qimmatli qog'ozlari ochiq sotuvga chiqariladigan kompaniyalar, moliyaviy xolding kompaniyalari, kredit beruvchi kompaniyalar, investitsiya treyderlari va brokerlari va davlat kompaniyalarini kiritish mumkin.

2016-yil iyun oyida Koreya Buxgalteriya Standartlari Kengashi besh yillik kuzatishdan so'ng IFRS standartlarini qabul qilishni baholash hisobotini e'lon qildi. Umuman olganda, tadqiqot IFRS standartlari Koreya firmalari uchun xalqaro moliyalashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, mahalliy firmalar va kompaniyalar uchun buxgalteriya hisobi bilan bog'liq xarajatlar oshgan bo'lsa-da, mahalliy moliyaviy hisobotlarni tayyorlovchilar va foydalanuvchilar xalqaro moliyaviy standartlarini qabul qilishning ijobiy ta'sirini aniqladilar. Bu esa o'z navbatida qarorlar qabul qilishda buxgalteriya ma'lumotlaridan ko'proq foydalanish; Koreya firmalarini kreditlash va kreditlash bo'yicha qarorlar qabul qilishda xorijiy banklar o'rtasida xavfni pastroq his qilish; xorijiy kapitalni yanada ko'proq jalb qilish imkoniyatlarini taqdim etdi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari o'quv qo'llanma<sup>4</sup>. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri jalb etilishi, erkin iqtisodiy

<sup>3</sup> IFRS Foundation web sites

<sup>4</sup> Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.



zonalarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishi buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil qilishni zarurat qilib qo‘ymoqda. Hozirgi vaqtda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari xo‘jalik subyektlar tomonidan tashqi foydalanuvchilar ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan buxgalteriya axborotini tayyorlashda tobora keng foydalanilmoqda. Bu holat axborotni sifatini oshirish, kapital qiymatini pasaytirish, kapital bozoriga kirishni osonlashtirish kabi bir qator sabablar bilan izohlanadi. Ma’lumki, moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarini bilmasdan turib ushbu standartlarga o‘tib bo‘lmaydi (Ergasheva va boshqalar, 2019).

Zamonaviy buxgalter va har bir rahbar xodim tomonidan bank yoki kompaniyani rivojlanishi va moliyaviy barqarorligini ta’minlashida duch kelinayotgan iqtisodiy muammolarni hal qilishda o‘z buxgalterlariga ishonch hosil qilgani holda, ularni yuqori malakasi va ish tajribalari xalqaro amaliyot, ya’ni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga tayanib eng yaqin yordamchi deb qarashi zarur. Bu esa respublikamiz iqtisodiyoti yanada rivojlanishining muhim omillaridan biriga aylanadi.

*1-jadval.*

### MHXS bo‘yicha faoliyat yuritayotgan yurisdiksiyalar soni mintaqalar kesimida<sup>5</sup>

Mintaqalar	Yurisdiksiya (bo‘lim)lar soni	Jami foiz
Yevropa	44	26%
Afrika	38	23%
Yaqin Sharq	13	8%
Osiyo va Okeaniya	35	21%
Amerika	37	22%
Jami	167	100%

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda MHXS standartlarining 167 ta yurisdiksiyasi dunyo bo‘ylab faoliyat yuritmoqda. Bu esa albatta jahon miqyosida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining nechog‘lik keng tarqalib borayotganini namoyon etadi.

### Tadqiqot metodologiyasi:

Mazkur maqolada O‘zbekistonda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga o‘tishda amalga oshirilayotgan keng – ko‘lamli amaliy ishlar tahlil qilingan. Mazkur tahlil jarayonini yanada tushunarli va aniq bo‘lishi uchun maqolada rasm va jadvallar usulidan foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi:

Mazkur standart tashkilotning oldingi davrlardagi moliyaviy hisobotlari, shuningdek, boshqa tashkilotlarning moliyaviy hisoboti bilan qiyoslanishini ta’minlash maqsadida

<sup>5</sup> IFRS.org



umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotni taqdim etish asoslarini belgilab beradi. U moliyaviy hisobotni taqdim etishga nisbatan umumiy talablarni, uning tuzilishiga oid ko'rsatmalarni hamda uning tarkibiga doir minimal talablarni belgilaydi<sup>6</sup>(Karimov, 2020).

Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi [1-ilovaga](#) muvofiq;

1-son "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [2-ilovaga](#) muvofiq;

2-son "Zaxiralar" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [3-ilovaga](#) muvofiq;

7-son "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [4-ilovaga](#) muvofiq;

8-son "Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [5-ilovaga](#) muvofiq;

10-son "Hisobot davridan keyingi hodisalar" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [6-ilovaga](#) muvofiq;

12-son "Foyda soliqlari" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [7-ilovaga](#) muvofiq;

16-son "Asosiy vositalar" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [8-ilovaga](#) muvofiq;

19-son "Xodimlarning daromadlari" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [9-ilovaga](#) muvofiq;

20-son "Davlat grantlari hisobi va davlat yordami to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritib berish" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [10-ilovaga](#) muvofiq;

21-son "Valyuta kurslaridagi o'zgarishlarning ta'sirlari" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [11-ilovaga](#) muvofiq;

23-son "Qarzlarni bo'yicha sarflar" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [12-ilovaga](#) muvofiq;

24-son "Bog'liq tomonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritib berish" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [13-ilovaga](#) muvofiq;

26-son "Pensiya dasturlari bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisoboti" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [14-ilovaga](#) muvofiq;

27-son "Alohida moliyaviy hisobot" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [15-ilovaga](#) muvofiq;

28-son "Ta'sir ostidagi tashkilotlarga va qo'shma korxonalariga investitsiyalar" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [16-ilovaga](#) muvofiq;

29-son "Giperinflatsiyali iqtisodiyotda moliyaviy hisobot" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [17-ilovaga](#) muvofiq;

32-son "Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [18-ilovaga](#) muvofiq;

33-son "Bir aksiyaga to'g'ri keladigan foyda" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [19-ilovaga](#) muvofiq;

34-son "Oraliq moliyaviy hisobot" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [20-ilovaga](#) muvofiq;

36-son "Aktivlarning qadrsizlanishi" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [21-ilovaga](#) muvofiq;

<sup>6</sup> Karimov A, Qo'ziyev I, Rahimov M Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, Xalq so'zi, 2020.



37-son “Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar” Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [22-ilovaga](#) muvofiq;

38-son “Nomoddiy aktivlar” Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [23-ilovaga](#) muvofiq;

39-son “Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash” Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [24-ilovaga](#) muvofiq;

40-son “Investitsiya ko‘chmas mulki” Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [25-ilovaga](#) muvofiq;

41-son “Qishloq xo‘jaligi” Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [26-ilovaga](#) muvofiq<sup>7</sup>.

Tashkilot mazkur standartni umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlashda va taqdim etishda qo‘llashi lozim.

Bunda MHXSlar muayyan operatsiyalar va boshqa hodisalarni tan olish, baholash va yoritib berish bo‘yicha talablarni belgilaydi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo‘yicha kengash (BHXS) tmonidan e‘lon qilingan standartlar va sharhlardir.

Moliyaviy hisobot tashkilot moliyaviy holati va moliyaviy natijalarini tartibga solingan ifodasidir. Moliyaviy hisobotning maqsadi turli foydalanuvchilar uchun iqtisodiy qarorlar qabul qilishda foydali bo‘ladigan tashkilotning moliyaviy, moliyaviy natijalari va pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bilan ta‘minlashdan iborat. Moliyaviy hisobot, shuningdek, tashkilot rahbariyati tomonidan unga ishonib topshirilgan resurslar boshqarilishining natijalarini ham aks ettiradi. Ushbu maqsadga erishish uchun, tashkilotning moliyaviy hisoboti quyidagilar to‘g‘risida ma‘lumot taqdimetadi:

- Aktivlar;
- Majburiyatlar;
- Xususiy kapital;
- Daromad va xarajatlar, shu jumladan foyda va zarar;
- Mulkdorlar tomonidan ularning mulkdor sifatida amal qilishidagi qo‘yilmalar va ularga mulkdor sifatida amal qilishdagi taqsimlanadigan summalar;
- Pul mablag‘lari harakati.

Ushbu ma‘lumotlar izohlardagi boshqa ma‘lumotlar bilan birgalikda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga tashkilotning kelgusi pul oqimlari, xususan, ularning yuzaga kelish vaqti va aniqligini prognoz qilishga yordam beradi.

Moliyaviy hisobot tashkilotning moliyaviy holatini, moliyaviy natijalarini va pul mablag‘lari harakatini haqqoniy taqdim etishi lozim. Haqqoniy taqdim etish operatsiyalarining, boshqa hodisalarning va shartlarning ta‘sirilarini Konseptual asosda keltirilgan aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlarning ta‘riflari hamda tan olish mezonlariga muvofiq ro‘yi – rost taqdim etishni talab etadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta‘minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug‘i, 09.12.2022 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3400, Toshkent sh.



2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar 2021-yil 1-yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashi belgilangan.

Moliya vazirligi tomonidan 2020 yil 12 oktabrda 92-sonli MHXSujjatlarini davlat tiliga tarjima qilish va ularni ekspertizadan o‘tkazishni tashkil qilish to‘g‘risida buyrug‘iga asosan 62 ta MHXS hujjatlari davlat tiliga tarjima qilindi.

MHXS hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish uchun Moliya vazirligi tomonidan 2022 yil 28 martda 39-sonli buyruq bilan Ekspertiza komissiyasi tuzilib, Ekspertiza komissiyasining xulosasida O‘zbekiston Respublikasi hududida MHXS hujjatlarini to‘liq qo‘llash mumkinligini tasdiqlagan yakuniy fikri aks ettirilgan.

Mazkur xulosaga asosan O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi **61-son** bilan rasmiylashtirilgan **“O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to‘g‘risida”** buyrug‘i Adliya vazirligi tomonidan **2022-yil 9-dekabrda 3400**-raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi<sup>8</sup>.

Ishlab chiqilgan loyihaga ko‘ra, MHXS Fondi va Moliya vazirligi MHXSdan foydalanuvchilarga standartni quyidagi maqsadlar uchun chop etishlari uchun ruxsat beradi:


- foydalanuvchning professional foydalanishi;
- mustaqil o‘qish va ta’lim.

Bu yerda professional foydalanish deganda foydalanuvchining mijozlariga foydalanuvchi buxgalter sifatida yoki tashkilotga moliyaviy hisobotlarni tayyorlash yoki moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish uchun mazkur standartni qo‘llash maqsadida buxgalteriya xizmatlarini ko‘rsatish faoliyati bilan bog‘liq holda foydalanuvchining professional maqomida mazkur standartdan foydalanish tushuniladi.

Shuningdek, professional foydalanishdan tashqari bo‘lgan foydalanuvchilar o‘zaro kelishilgan shaxslar va kelishuvchilarga muvofiq alohida individual litsenziya uchun Moliya vazirligi va MHXS Fondi bilan bog‘lanishlari loim bo‘ladi.

Moliyaviy hisobotni MHXSlarga muvofiq tayyorlaydigan tashkilot izohlarda bunday muvofiqlikni oshkora va shartsiz bayon etishi lozim. Moliyaviy hisobot MHXSlarning barcha talablariga muvofiq bo‘lmaguncha tashkilot uni MHXSlarga muvofiq deb bayon etmasligi lozim.

<sup>8</sup> Moliya vazirligi axborot xizmati 13.12.2022



1-rasm. Moliyaviy hisobotning tashkil bo'lish jarayoni<sup>9</sup>

Yuqoridagi rasmda moliyaviy hisobotning tashkil bo'lish mexanizmlari yoritib berilgan. Global miqyosda qabul qilingan buxgalteriya amaliyotining moliyaviy hisobotlar bo'yicha qoidalar va standartlarga ko'ra moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish shaffof, aniq, muvofiq va taqqoslash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

### Xulosa

Bugungi kunda O'zbekiston xalqaro investitsiya bozorlariga chiqish, shuningdek jahondan sarmoyalar jalb qilishni tezlatish va jadallashtirish yo'liga o'tgan. Shu sababdan ham MHXSga o'tish uchun bir-ikki yillik chora-tadbirlar mutasaddilarga yuklatildi. O'ylaymizki, mazkur jarayon qisqa muddat ichida oson kechmaydi, lekin bundan buyon qarorni ortiqcha paysalga solib ham bo'lmaydi.

Mazkur maqola orqali shuni xulosa qilib keltirish mumkinki, har bir soha albatta jahon standartlari talablariga javob bera olsagina xalqaro miqyosda tan olinishi turgan gap. Davlat sektorlariga xalqaro hamkorlarni jalb qilish orqali ularning faoliyati yanada mukammal va samarali bo'lishi ta'minlanadi, qolaversa bu yo'lda, respublikamizda MHXS sohasida

<sup>9</sup> [IFRS](http://www.wallstreetmojo.com) (wallstreetmojo.com)





mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha jahonning muvaffaqiyatli tajribalarini ommalashtirish, shu jumladan buxgalteriya hisobi sohasida qayta tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlarining faoliyatini kengaytirish va buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXSga muvofiq uyg'unlashtirish kechiktirib bo'lmaydigan masaladir.

Xulosa qilib ta'kidlash mumkinki:

*birinchidan*, moliyaviy hisobotning milliy standartlari (MHMS)dan foydalanuvchilar uchun ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha sharhlar berish;

*ikkinchidan*, Oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini xalqaro (MHXS) va milliy (MHMS) standartlariga muvofiqlashtirish;

*uchinchidan*, amaldagi buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) asosida o'quv dasturlar, darslik va o'quv qo'llanmalar to'liq moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) ga to'liq moslashtirish.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda Moliya vazirligi tomonidan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hidob tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, jumladan MHXSni joriy etish bo'yicha vakolatli organ sifatida buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXSga muvofiq uyg'unlashtirish ishlari jadallik bilan davom etmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. SH.Mirziyoyev, PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 24.02.2020.
2. IFRS Foundation web sites
3. Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.
4. Wallstreetmojo.com
5. Karimov A, Qo'ziyev I, Rahimov M Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, Xalq so'zi, 2020.
6. Muslimov J, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga qanday o'tiladi? Zamin.uz 09.03.2020.
7. Muzrapova Sh, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi, Tafakkur manzili, 2020.